

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
ROMAN-GERMAN TILLARI FAKULTETI ISPAN VA ITALYAN TILLARI
KAFEDRASI
ITALYAN TILI YO'NALISHI

MUSTAQIL ISH

**MAVZU: O'zbek xalq ertaklarini italyan tiliga tarjima qilishda uchraydigan
semantik muammolar.**

Bajardi: Usarov O.R.

3.03 italyan guruhi talabasi

Samarqand-2017

REJA:

1. Xalq ijodiyotining yorqin nomoyondalari bo'lgan ertaklar va ularning tarbiyaviy ahamiyati.....	3
2. Ertaklarda xalq madaniyati va tarixining aks ettirilishi.....	10
3. O'zbek va italyan ertaklarining o'xshashligi va hayotiyligi.....	12
4. Ertaklarni tarjima qilishda foydalaniladigan asosiy usullar.....	13
5. O'zbek xalq ertaklarini italyan tiliga tarjima qilishda uchraydigan semantik muammolar.....	18
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	23

Ertaklar yaxshilikka yetaklar.

1.1 Xalq ijodiyotining yorqin nomoyondalari bo'lgan ertaklar va ularning tarbiyaviy ahamiyati.

Ertaklar dunyodagi boshqa xalqlar og'zaki ijodida keng tarqalganidek, o'zbeklarda ham eng ommaviy janrlardan biri sifatida turli viloyatlarimizda yashaydigan yurtdoshlarimiz tomonidan sevib aytib kelingan. Ularning juda qadim zamonlardan yaratilganini «ertak» atamasining Mahmud Koshg'ariy tomonidan 1074 yilda yozilgan «Devonu lug'oti-t-turk» asarida «etuk» tarzda qo'llanganidan bilsa bo'ladi: «Etuk – hikoya, ertak; biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham bu so'z qo'llanadi. Asli bir narsani hikoya qilishdan olingan». Bu janrning qadimiyligini qozoq, qirg'iz, turkman va boshqa bir qator turkiy xalqlar oilasiga kiruvchi millatlar og'zaki ijodida ham ertak deb atalishi, isbotlashi mumkin. Shuningdek, miflar, afsona, rivoyatlar haqida fikr yuritganimizda, diffuzion jarayonning keyingi bosqichi ertak ekanligini eslatib o'tganmiz. Demak, agar xalqimiz og'zaki ijodini qadimgi qadriyatlar sifatida e'zozlasak, bu xazinaning noyob durdonasi sifatida hech ikkilanmay ertaklarni qayd etish mumkin ekan. Ertak terminini O'zbekistondagi hamma viloyatlar aholisi juda yaxshi bilsa-da, bu janrga oid asarlar turlicha hududlarda turlicha atalgan. Xususan, toshkentliklar «cho'pchak», farg'onaliklar «matal», xorazmliklar «varsaqi», o'zbek va tojik tilida so'zlashuvchi vatandoshlarimiz «ushuk» tarzda atashgan. Bulardan tashqari jonli so'zlashuvda ba'zan afsona, o'tirik, tural atamalari ham uchraydi. Hatto hazrat Alisher Navoiy ham g'azallaridan birida «cho'pchak» so'zini qo'llaganlar:

Habibim husni vasfin uyla muhlik anglakim bo'lg'ay,
Qoshinda qissai Yusuf bir uyqu kelturur cho'pchak .¹

(Baytdagi «cho'pchak» «Navodiru-sh-shabob»ning 1959 yilgi nashrida «cho'rchak» shaklida yozilgan. Shuning uchun Alisher Navoiy zamonida «cho'rchak» yoki

¹ Alisher Navoiy «Navodiru-sh-shabob»ning 1959 yilgi nashri.

«cho'pchak» atamasi bor edi deb xulosa qilish mumkin bo'ladi). Ayni paytda baytdagi «uyqu» so'ziga e'tibor bering. Ma'lum bo'ladiki, oqshom payti bolalarni uxlatishda ertakning sehrli ta'sir kuchidan bugungi kunda foydalanar ekanmiz, bu an'ana ham bejiz paydo bo'lmaganini qayd etamiz. Darvoqe, H.Olimjonning 1937 yilda yozgan

«Oygul bilan Baxtiyor» ertagini eslashimiz ham o'rinli:

Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda,
Ko'p ertak eshitgandim,
So'ylab berardi buvim.

Esimda o'sha damlar,
O'zi uchar gilamlar,
Tohir-Zuhra, Yoriltosh,
Oyni uyaltirgan qosh .¹

Shoir doston boshlanishida (dostonning bosh mazmuni ham «Ozoda chehra» ertagiga asoslanishini ta'kidlash mumkin) xalq ertaklari jozibasini shoirona kashfiyotlar bilan yoritib bergan. Bu misralarda «Tohir va Zuhra», «Yoriltosh» ertaklarining nomi tilga olinishidan tashqari «o'zi uchar gilamlar», «oyni uyaltirgan qosh»lar, «beqanot uchgan otlar», «so'ylaguvchi devorlar», «bola bo'p qolgan chollar» sanab o'tiladi. Haqiqatan ham, «Oygul bilan Baxtiyor» adabiy ertagini yozishda shoirga xalq ertaklarining sirli olami ilhom bag'ishlagan va Hamid Olimjon o'z o'quvchisiga bu ilhom izohini go'zal so'zlar bilan etkazishga harakat qilgan.

Yuqorida keltirgan fikrlarimiz xalq ertaklarining haqiqiy so'z san'ati sifatida qadimdan yashab kelayotganini, xalq hayotida ularda tasvirlangan olam muayyan ahamiyat kasb etganini dalillaydi.

Xalq ertaklarimizning badiiy ijod namunasi sifatidagi janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Ertaklar xalq og'zaki ijodining epik jinsi (turi)ga mansub.

¹ Hamid Olimjon, "Oygul bilan Bahtiyor" 1937.

2. Ertaklar, asosan, nasrda yaratiladi. Faqat ayrim asarlardagina («Yoriltosh», «Tohir va Zuhra» va b.) qo'shiqni eslatuvchi she'riy parchalar uchraydi.
3. «Bir bor ekan, bir yo'q ekan» boshlamasi va «murod-maqсадiga etibdi» yakunlanmasi ertaklarning an'anaviy belgisi hisoblanadi.
4. Xayoliy-fantastik tasvir ertaklar syujetida qo'llanadigan ustuvor usuldir.
5. Ertaklarning umumiy mazmunida IMF formulasi doimiy takrorlanadi. Har bir ertak I – inisial – boshlanma; M – medial – asosiy qism; F – final – yakunlanmadan iborat bo'ladi.

1.2 Ertaklarda xalq madaniyati va tarixining aks ettirilishi.

Ertaklarning miplardan ijod usulini o'zlashtirganligi haqida fikr yuritgan edik. Bu an'ana o'zbek xalq ertaklarining umumiy mazmunida bugungi kungacha saqlanib kelmoqda. Ehtimol, bu janr asarlarining yashovchanligini ta'minlagan asosiy xususiyat ham shundan iboratdir. Xalq o'z ertaklarida chegarasiz ravishda xayolot olamini kezib chiqadi. Ya'ni ularda xalq fantaziyasi mahsuli bo'lgan chegara bilmas uydirmalar, transfigurasiya (bir shakldan ikkinchi shaklga o'tish) holatlari tinglovchini o'ziga jalb etadi. Vaholanki, ertak boshlanmalaridagi “Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir och ekan, bir to'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan...” (olimlar boshlanmadagi tarkibiy “ekan” qismlarning 20 ga yaqin bo'lishini belgilashgan) ibora va jumlar mutaxassislar fikricha, ertakda bayon qilingan voqealarning aslida umuman bo'lmagani va ro'y berishi mumkin emasligini anglatar ekan. Haqiqatan ham, dostonlarda biz bu mazmundagi boshlanma – zachinlarni uchratmaymiz. Shu bois odatga ko'ra dostonlardagi voqealar hayotda bo'lgan deb qabul qilinadi. Ertakda esa tamom boshqa holat hukm suradi. Chunki bu janr boshlanmasidagi “bor-yo'q”, “och-to'q” so'zlarining o'zi hikoya qilinayotgan voqeaga nisbatan shubha uyg'otadi. Ammo masalaning qiziq tomoni shundaki, voqea boshlanmasdan atayin shubha uyg'otishga bo'lgan harakat tinglovchiga deyarli ta'sir qilmaydi. Biz ertaklardagi uydirmalarga to'la ishonamiz, asar qahramonlarining taqdiriga befarq qaray olmaymiz, sevikli malika yoki cho'pon muvaffaqiyat qozonsa,

bu g'alaba o'zimiznikidek quvonaveramiz.

Xalq ertaklari mazmunida ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy hayotning hamma masalalari o'z ifodasini topadi, desak xato bo'lmaydi. Shuning uchun ham er yuzining hamma mintaqalarida yashaydigan xalqlarda umumiy hayot tarzi yaqin bo'lgani sabab bir xil mazmundagi ertaklar ko'p uchraydi. Fransuz, ingliz, xitoy, yapon ertaklari aksariyat hollarda o'zbeklar ijodidagi bu janrdagi asarlar mazmunini takrorlaydi. Faqat fransuzlarda pishloq, uzum; xitoylarda guruch; o'zbeklarda tuxum yoki qatiq kabi narsalar farqi seziladi. Agar boshqa xalqlardagi ertaklar matnida shu yoki boshqa narsalar nomini milliy predmetlar bilan alishtirsak, ko'pincha, boshqa xalqlar namunalari ham o'zbekniki bo'ladi-qoladi. Bu holat sababini avval qayd qilganimizdek, bir xalqdan ikkinchi xalqning o'zlashtirishi deb emas, umumiy hayot tarzining yaqinligi bilan asoslash ma'qulroqdir. Masalan, yoqut xalqidagi "Bekinmachoq", ruslardagi "O'n ikki oy" ("Morozbobo") va o'zbekdagi "Zumrad va Qimmat" ertaklarida voqea tugunidan tortib echimigacha bir xil yo'nalishda kechadi. Ammo bu asarlarning har biri bevosita o'sha xalq ijodi namunasi deb tan olinadi. O'zbek folklorshunosligi rivojiga munosib hissa qo'shgan Mansur Afzalov o'zbek xalq ertaklari yuzasidan ilmiy ish yozar ekan, bu janrning o'rganilishi tarixiga alohida to'xtagan. Olimning ma'lumot berishicha, o'zbek ertaklariga bo'lgan ilmiy e'tibor XIX asr ikkinchi yarmidan boshlangan. Bu o'rinda A.A.Kushakevich, N.Lapunova, A.Vasil'ev, A.N.Samoylovich, V.V.Bartold kabi bir qator ziyoli va taniqli olimlar ismlari keltirilgan. Shuningdek, «Farhod va Shirin», «Shirin qiz», «Samarqand», «Shahzoda Nazar Muhammad va Malika Nazarbibini», «Annamurod bova haqida», «Erni er qilgan xotin», «Donishmand Cho'pon» kabi afsona va ertaklar matnlarining yozib olinishi, dastlabki tadqiq qilish jarayoni haqida ma'lumotlar qayd etilgan . O'zbek ertaklari o'z vaqtida Miyon Buzruk Solihov, Hodi Zarifov, Xolid Rasul, Buyuk Karimov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Keyinchalik bu faoliyatni K.Imomov, T.G'oziboev, G'.Jalolov, X.Egamov, H.Razzoqov, J.Yusupov kabi olimlar davom ettirishdi.

Xalq tabiatan hamisha adolatni yoqlaydi, himoya qiladi. Ertaklar yaratilish jihatdan miqlarga asoslansa, mavzuning tanlanishi, obrazlar tizimidagi yo'nalishlar,

hayot muammolarini aks ettirishda adolat mezoniga bo'ysunadi. Qalloblik, vijdonsizlik, xiyonat, yolg'onchilik, ma'naviy nopoklik kabi illatlar doimiy ravishda qoralanadi. Mardlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, iymonlilik, poklik fazilatlari hurmat bilan tilga olinadi. Voqeaning tuguni ham hamisha ana shu fazilatlarni ulug'lash bilan echimini topadi. Mohir xalq farzandlari tomonidan o'ylab topilgan fantastik hodisalar, uydirma lavhalar, sehri narsa-buyumlar, jodular, g'ayritabiiy hodisalar esa tom ma'noda yovuzlikning qoralanishi, ezgulikning maqталishida poetik xomashyo sifatida foydalaniladi.

1.3 O'zbek va italyan ertaklarining o'xshashligi va hayotiyliги.

Italyan va o'zbek adabiyoti va tarixini o'rganishda biqiyos ahamiyat kasb etuvchi ertaklar, bu ikki mamlakatning hayotini, boy milliy merosini aks etishi bilan ajralib turadi. Darhaqiqat, ertaklar har xil davrga, har xil millatga tegishli bo'lishiga qaramay, ular bir-biriga o'xshash g'oyalarni ilgari suradi. Misol uchun ertaklarning asosiy qahramonlari hayvonlar hisoblanishi! Nima uchun? degan savol tug'ilishi tabiiy hol. Agar tarixga nazar soladigan bo'lsak, o'sha davrlarda insonlarni, muqobil shaxslarni ertaklar uchun bosh qahramon qilib olish ta'qiqlanar edi va shu sabab orqali hayvonlar obrazlari orqali insonlarning xarakterlari, dunyo qarashlari, ularning muammolari ochib berilgan.

O'zbekiston O'rta Osiyo mamlakatlari qatoridan joy egallagan bo'lsa, Italiya Yevropa qit'asidan o'rin olgan. O'rtada uzoq masofa bo'lishiga qaramay, ertaklardagi o'zaro o'xshashlik va tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi hayratlanarli hol. Qaysi bir mamlakatni ko'rmaylik, shuningdek, yuqorida ta'kidlagan ikki mamlakatda ham *Bo'ri* obrazidagi ertaklarni uchratishimiz mumkin. Yoki bo'lmasa ertaklardagi *Tulkining* ayyor ekanligi, *Ayiqning* yalqovligi, *Quyoning* qo'rqqoligi, *Sherning* haimisha qirol obrazida tasvirlanishi gapimizning yaqqol isbotidir. Ertaklarda uchraydigan ya'na bir mavzu bu – go'zal malikalar va ularning oshiq-lari navqiron,

kelishgan shahzodalar bo'lishi yoshlar uchun eng qiziqarli va orzular ummonining bitmas-tuganmas boyligidir.

“Guruch kurmaksiz bo'lmaydi” deganlaridek ertaklarda tabaqalarga ajralgan jamiyat xususan, boy va kambag'allar muammosi ham o'z o'rnini topgan. Boy oylalarning, qirol oylasining vakillari shahzodalar yoki qirolichalar o'z tabaqasidan “past” bo'lgan oddiy xalq vakillari bilan hayot bog'lash niyati va ota-onalarning qarshiliklari ertaklar husniga husn qo'shib kelmoqda. Odatga ko'ra sevishganlar mashaqqat orqali bir-birlarining visoliga yetishadi – bu esa tabaqalanish muammolarini qoralashi bilan xarakterlidir.

Ertaklarda eng ko'p uchraydigan o'xshashliklardan biri o'gay onalarning zulmidan azob tortayotgan qora ko'z farzandlardir. Ammo qiyinchilik ko'rgan shaxsgina komillik sari intilishga harakat qiladi, kelgusi hayotini mukammal tarzda amalga oshirishga va orzu-umidlarining ro'yobiga bel bog'lashga yo'l ochadi.. Shu kabi ertaklarda aziyat chekkan farzandlar o'z murodlariga yetadilar. Bunday chiroyli yakunlar esa farzandlarda o'z ota-onalariga nisbatan mehr-muhabbatni uyg'otib, hayotning oqu-qorasini ajratishga xizmat qiladi.

II BOB. Ertaklar tarjimasining Lingvistik ahamiyati

2.1 Ertaklarni tarjima qilishda foydalaniladigan asosiy usullar.

Mutlaqo hamma, har bir inson tarjimondir. Hattoki endigina tili chiqqan ikki yasharlik bolakay ham. Bizga ma'lumki, tarjima bu bir tildagi matnni boshqa bir tilga o'girishdir. Lekin chuqurroq tahlil qilinganda, tarjima faqatgina matnni bir tildan ikkinchi tilga olib o'tish emas, balki mavjud tushuncha va fikrlarni muayyan til vositalari – so'zlar va gaplar orqali ifodalash hamdir.

Fikrimning isboti sifatida shuni aytish mumkinki, ayni bir voqe'likka guvoh bo'lgan va turli aqliy qobiliyat va lisoniy imkoniyatlarga ega bo'lgan insonlar huddi shu voqe'likni turlicha ifodalaydilar.

Misol uchun aytadigan bo'lsak, adabiy til me'yorlarini o'ziga dasturul amal bilgan shaxs shu kunlardagi Andijon shahridagi ob-havoga baho berar ekan, "Kun nihoyatda isib ketdi." – deb aytishi mumkin. O'zbek tilidan faqat muloqot uchun foydalanadigan va uning go'zalliklaridan to'la bahramand bo'lmagan odam esa, "Kun vopshim isip kettimi?" – deb aytishi mumkin.

Boshqacha qilib aytganda, biz avvalo ongimizda paydo bo'lgan mavhum tushunchalar va obrazlarni o'z ona tilimizga TARJIMA qilib, suhbatdoshimizga yetkazamiz. Ayni matni turlicha saviyali tarjimonlar turlicha tarjima qilgani kabi, biz ham bir xil masalani o'z saviyamizdan kelib chiqib, turlicha ifoda etamiz.

Shaxsan men o'zimning italyan tilini o'rganish faoliyatim davomida aynan tarjimaga juda katta e'tibor beraman. Zero, mening fikrimcha, chet tilini o'rganayotgan o'quvchi tarjima qilish ko'nikmasini mukammal egallashi shart. Chunki, shet tilini o'rganish orqali biz tarjima qilish ko'nikmamizni yana bir bosqich yuqoriga ko'taramiz. Ya'ni biz endi ongimizdagi tushunchani ona tilimizga emas, balki ona tilimizdagi fikrni chet tiliga tarjima qila boshlaymiz.

Holisona aytingchi, siz qaysi tilda fikrlaysiz? Balki kimlardir buni tan olgisi kelmas, lekin HAMMA O'Z ONA TILIDA fikrlaydi. Ona tilining ONA TILI ekanligi ham shundada! Xo'sh, o'zbek tilida kerakli fikrni shakllantirib oldingiz va uni suhbatdoshingizga italyan tilida yetkazib berishingiz uchun endi uni italyan tiliga tarjima qilashingiz lozim.

Yuqoridagilarni jamlaydigan bo'lsak, tarjimonlik hamma uchun xos. Faqat, hamma uchun tarjimonlikning turli sathlari va turli darajalri xos. Albatta, hamma bir xil darajada tarjimon degan fikrning tagiga men imzo chekmagan bo'lardim.

Haqiqiy, professional tarjimonlikchi? U haqda ham fikr yuritib ko'raylikmi? Agar shu maqolamni sof o'zbek tilida yozmayotgan bo'lganimda "Perch'e no?" degan bo'lardim. Lekin unday demay qo'ya qolay.

Hech o'ylab ko'rganmisiz, tarjimaga ehtiyoj qachon paydo bo'lgan ekan? Menimcha, juda qadim zamonlarda paydo bo'lgan tarjimaga ehtiyoj. Uning paydo bo'lish sanasini aniq aytolmaymanu, lekin uning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan voqeani aniq bilaman. Tarjimaning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan voqea shuki, ikkita odam uchrashgan lekin bir-birini tushunishmagan. Ular bir-birini tushunish uchun topgan yechimlari, menimcha, aynan tarjima bo'lgan.

Tarixiy jarayonlar natijasida insoniyat yer sharining tuli nuqtalariga tarqalib, rivojlanib borar ekan, ularning tillari ham bir-biridan farqli ravishda rivojlangan. Keyinchalik, turli elatlar o'rtasida aloqalar o'rnatish fursati yetganda esa, tarjima ular uchun bosh ko'makchi bo'lgan.

Shaxsan meni tasavvurimda ilk tarjima jarayoni "Tarzan" filmidagi Jeyn va Tarzan o'rtasidagi muloqotni eslatgan. Ya'ni, ikki taraf o'zaro tanish jism va tushunchalarni har bir taraf nima deb atashini qo'li bilan ishora qilib ko'rsatgan.

Tarjima qilish jarayonida, dastavval, tarjima matniga e'tibor berish talab qilinadi. Agar ushbu matn tarjima qiluvchi shaxsgan tushinarli bo'lsagina u tarjima qilish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Hozirgi texnologiya davriga kelib, *online Google translatedan* foydalanish avj olmoqda. Ammo shuni ta'kidlashimiz lozimki, bu tarjimon talab darajada emas. Agar o'zbek tilidagi berilgan matnni yoxud ertakni bu tarjimonga joylashtirsak to'g'ridan to'g'ri tarjimaning guvohi bo'lishimiz mumkin!

*Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir chol bor ekan. Uning Zumrad ismli qizi bor ekan. Chol bir qizi bor ayolga uylanibdi. Qizining ismi Qimmat ekan. O'gay ona Zumradni yoqlirtmas ekan. Eng og'ir ishlarni unga buyurar, qarg'ab, urarkan. O'zining qizini juda yaxshi ko'rarkan, doim uni maqtagini maqtagan ekan.*¹

Ho un'idea, nessuna idea, c'era un vecchio. Sua figlia Adrienne. La vecchia donna che ha una figlia sposata. Il suo nome è costoso. yoqlirtmas smeraldo della matrigna.

¹ "Zumrad va Qimmat" O'zbek xalq ertagi

Le cose più difficili che gli ordinarono di urarkan. Sua figlia molto bene ko'rarkan, sempre lodando e lodandolo.

Agar ma'no jihatdan tarjima qiladiga bo'lsak, quyidagi ko'rinishdagi vaziyatga duch kelamiz.

C'era una volta, c'era un vecchio. Lui aveva una figlia che si chiamava Zumrad(significa lo smeraldo).Il vecchio ha sposato a una donna che aveva una figlia e si chiamava Qimmat(Costoso). Alla matrigna non piaceva Zumrad. Le ordinava le cose più difficili e la batteva maledicendo. Voleva bene alla sua figlia, sempre la lodava, la lodava.

Laylak bilan tulki

Laylak bilan tulki do'st bo'lgan ekan. Qimmatchilik vaqti kelib, ikkisi bola-chaqasi bilan och qolibdi. Bir kun laylak tulkiga: — Tulkiboy, sen uyga qarab o'tir. Men uchib borib o'zimizga va bolalarimizga ovqat topib kelay, — debdi. Tulki rozi bo'lib, uyda bolalarga qarab qolibdi. Laylak ovga ketibdi. Tulki uyda o'zining va laylakning bolalariga qarab o'tiraveribdi, oradan besh kun o'tibdi, yetti kun o'tibdi, laylakdan darak bo'lmabdi. Tulkining qorni nihoyatda ochib, holidan ketay deb qolibdi, ochdan o'lar holga kelibdi. Tulki u yoq-bu yoqqa qarab, hech kim yo'qligidan foydalanib, laylakning bitta bolasini tappa bosib yeb qo'yibdi. Bolani yeb bo'lgandan keyin qarasa, laylak ikki toshbaqa, beshta qurbaqa, ikki ilonni ko'tarib olib, ovdan kelyapti. Tulki aytibdi: — Ey attangg-a, bir kun qaragam bo'lar ekan, do'stim ancha oziq olib kelar ekan, nima deb javob beraman, —deb yig'lay boshlabdi. Laylak uyga kelsa tulki do'sti yig'lab o'tirgan emish. Laylak: — Ey tulki do'stim, nega yig'laysan? — deb so'rabdi. Tulki yig'i aralash: — Hay, hay laylak do'stim, bo'yni uzunjonning biri kasal bo'lib o'lib qoldi, shunga

yig 'layapman, — deb suyaklarini ko'rsatibdi.
Laylak xafa bo'libdi. Yig 'labdi va bolasini olib, boshqa yoqqa uchib ketibdi.¹

La Cicogna e la Volpe.

C'era una volta una Cicogna e una Volpe erano le amiche. Era venuta l'annata magra e la Cicogna, la Volpe e i loro bambini avevano fame. Un giorno la Cicogna aveva detto che:

- Volpe, proteggi a casa tu! Volo per portare i cibi a noi e ai nostri bambini! -

La Volpe e' stata d'accordo e aveva cura a cuccioli a casa. La Cicogna era partita per la caccia. E la Volpe curava ai suoi bambini e ai bambini della Cicogna, Erano passati i cinque giorni e poi sette, ma non c'era l'informazione dalla Cicogna. La Volpe aveva fame, continuava ad indebolire e era molto affamata come un Lupo che potrebbe mangiare un cavallo. La Volpe aveva osservato il circonstante, non c'era nessuno, non c'era niente, ed era attaccata ai bambini della Cicogna e ne aveva mangiato uno. Dopo aver mangiato, la Volpe aveva visto che la Cicogna ritornava dalla caccia a casa con le due tartarughe, le cinque rane, e i due serpenti. La Volpe aveva detto che:

- Che peccato, se aspettassi un giorno , l'amica mia porterebbe i troppi cibi. Che cosa diro' a lei - e aveva cominciato a piangere. Quando la Cicogna era arrivata a casa sua, la Volpe piangeva.

- Cara Volpe, perch'e stai piangendo? – aveva detto la Cicogna.

- Ehi, ehi, cara mia Cicogna, il tuo bambino poverino e' stato malato, ed e' morto. – aveva detto piangendo la Volpe ed aveva mostrato le ossa di suo bambino. La Cicogna era triste, piangeva. La Cicogna e suoi bambini avevano volato ad un altro posto.

¹ "Laylak bilan tulki" O'zbek xalq ertagi.

2.2 O'zbek xalq ertaklarini italyan tiliga tarjima qilishda uchraydigan semantik muammolar

Dunyo xalq og'zaki ijodida yuksak ahamiyat kasb etuvchi - ertaklar har bir davlatning milliyligi, uning hayoti va tarixini o'zida mujassam etadi. O'zbek xalq og'zaki ijodi tarkibini boyitib kelayotgan milliy ruhdagi ertaklar dunyo mamlakatlari tillariga tarjima qilinmoqda. O'zbek xalq ertaklarini tarjima qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad uning tarbiyaviy va sharqona ruhda ekanligidadir. Ammo, mashaqqatsiz ko'zlangan maqsadga yetishib bo'lmaganidek, o'zbek xalq ertaklarini chet tillariga, xususan, italyan tiliga tarjima qilish jarayonida ayrim qiyinchiliklar va semantik muammolarga duch kelishimiz tabiiy holdir.

Tarjima muammolarini tahlil qilar ekanmiz, semantikaga murojat qilmaslikni iloji yo'q. "Semantika" so'zi yunoncha *semantikos* va fransuzcha *semantique* so'zlaridan olingan bo'lib, "ifodalovchi" degan ma'noni bildiradi. Tilshunoslikda semantika fani til birliklarining mazmun tomonini o'rganadi va tadqiq etadi. Semantika atamasini tilshunoslikka ilk bor 1897-yilda fransuz tilshunoslari tomonidan kiritilgan bo'lib, XIX asr oxiriga kelib lingvistik semantika mustaqil fan sifatida shakllangan.¹

Ertaklarni tarjima qilish jarayonida so'zlarni to'g'ri va boshqa tildagi muqobil variantini tanlash muhim sanaladi, ammo tillarda uchraydigan kamchiliklar bunga to'sqinlik qiladi. Agar tarjima qilayotgan ertagimizda *xola* yoki *amma* so'zlariga duch kelsak va uni italyan tiliga tarjima qiladigan bo'lsak, yuqorida ta'kidlangan muammoga duch kelishimiz mumkin. Misol uchun: *Kunlarning birida go'zal qiz xolasinikiga tashrif buyiribdi va bir ozdan so'ng qizning ammasi ham u yerga kirib kelibdi.*

Un giorno una ragazza bella e' andata dalla sua zia, dopo qualche tempo anche la zia di quella ragazza e' entarata alla casa

¹ Safarov Sh. *Semantika*. - Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2013 – B.14-27.

Yuqorida keltirgan misolimizda *xola* va *amma* soʻzlari oʻrnida bitta *Zia* soʻzi qoʻllanilmoqda, negaki itlayan va koʻplab tillarda *xola* va *amma* soʻzlari bir soʻz orqali ifodalanadi. Bundan tashqari *aka*, *uka* soʻzlari oʻrnida bir *fratello* yoki *opa*, *singil* soʻzlari oʻrnida *sorella* soʻzi ishlatiladi. Ammo lotin tili oʻzbek tiliga oʻxshashi va ulardagi soʻzlar alohida qoʻllanganligiga guvoh boʻlishimiz mumkin:

Oʻzbekcha	lotincha
<i>xola</i>	<i>matertera</i>
<i>amma</i>	<i>amita</i>

Yana shuni taʼkidlash joizki, oʻzbek tilida qoʻllaniluvchi *ota-ona* soʻzlari italyan tilida bir *Genitori* soʻzi bilan qoʻllaniladi. Italyan tilida *rod* ning mavjudligi ham oʻzbek tilidagi ikki soʻzdan tarkib topuvchi soʻzlarni bir soʻz bilan ifodalanishiga sabab boʻladi:

Figlio – oʻgʻil farzand, *bambino* – oʻgʻil bola

Figlia – qiz farzand, *bambina* – qiz bola

Oʻzbek ertakalarini boyitish va maftunkor koʻrk berish maqsadida soʻz oʻyinlari, omonim soʻzlarni qoʻllash va ular yordamida oʻzbek tilining ichki imkoniyatlarini nomoyon qilish asosiy vazifa qilib olinadi. Bu kabi vaziyatlarda tarjimonga qoʻyiladigan asosiy talab matn maʼnosini toʻgʻri tahlil qilish va kerakli soʻzni qoʻllay olishdadir.

Oʻt bu tomonga, bu yer oʻt bilan qoplangan, bu yerda oʻt yoqamiz!

Passa a questo posto, questo posto si copre dell'erba, facciamo il fuoco qua!

Tarjima qilish jarayonida eng koʻp uchraydigan semantik muammolardan biri – iboralar va maqollardan notoʻgʻri foydalanish, yoki ularni toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilishdir. Toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima natijasida gap maʼnosida gʻalizliklarni yuzaga keltirishimiz va bu orqali oʻquvchilarda ertaklarga nisbatan tushinmovchilik va qiziqishning pasayishiga turtki boʻlishimiz mumkin. Xoʻsh, bundau holatda nima

qilishimiz lozim? Bu o'rinli savol, bunday vaziyatda maqol va so'z birikmalarining aynan o'sh tarjima qilinayotgan tildagi ekvivalentini topish orqali yechim topilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbek xalq ertaklarida uchrab turuvchi maqollarning italyan tilidagi muqobil variantlari:

- *Elchiga o'lim yo'q*
- ***Ambasciator non porta pena.***
- *Temirni qizig'ida bos*
- ***Batti il ferro finché è caldo.***
- *Bilmaganin so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim*
- ***Chi domanda non fa errori.***
- *Yolg'onning umri qisqa.*
- ***La bugia ha le gambe corte.***
- *Yomonga o'lim yo'q*
- ***L'erba cattiva non muore mai.***
- *Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q*
- ***L'erba del vicino è sempre più verde.***
- *Mehmonning izzati uch kun.*
- ***L'ospite è come il pesce: dopo tre giorni puzza.***
- *Hechdan ko'ra kech*
- ***Meglio tardi che mai.***
- *Sanamay sakkiz dema.*
- ***Non dire quattro se non l'hai nel sacco.***
- *Jon chekmasang jonona qayda, toqqa chiqmasang do'lona qayda!*
- ***Senza fatica non e' possibile pigliare il pesce dal lago.***

O'zbek tilida qotib qolgan birliklardan biri iboralardir. Iboralar ma'no jihatdan bir so'zga teng bo'lib, o'zi ifodalayotgan so'zlar faqat ko'chma ma'noni anglatadi.

alzarsi col piede sinistro

Chap yoni bilan turmoq,

amici per la pelle

orasiga qil sig'mas

malato al cervello

og'zi ochilib qoldi,

lavare una macchia col sangue

qonga – qon, jonga – jon.

Yuqorida ko'rsatilgan frazeologik birliklar o'z muqobil variantiga ega bo'lgan ibora va maqollardir, lekin har bir maqol va iboralarning muqobil varianti bor degani emas. Misol uchun

Bir balosi bo'lmasa, shudgorda quyuc na qilur

Se non ci fosse una disgrazia, cosa farebbe la coda nel centro del campo – *to'g'ridan to'g'ri qilingan tarjima turli xil tushinmovchilikni yuzaga keltirishi yuqoridagi misolda aks etgan. Agar muqobil variantini topa olmasak, o'sha iboraning izohli ma'nosidan foydalanish kifoya. E' colpa sua, per questo lui e' venuto qua* shaklida yozish ham mumkin, agar matn shuni talab qilayotgan bo'lsa.

O'zbek va italyan tillari o'rtasidagi yana bir farq bu - gap tuzilishidagi qiyinchiliklardir. Bizga ma'lumki o'zbek tili – turkiy tillar oilasiga, italyan tili esa, roman tillar oilasiga mansub va gap tuzilishi ham farq qiladi.

Gap qurilishi jarayonida yuqorida tilga olingan muammoni ko'zdan kechiramiz: o'zbek tilida kesimning joylashuv o'rnini har doim gapning oxiridadir, ammo italyan tilida bu aksinchi, ya'ni egadan so'ng har doim kesim talab qilinadi. *Men uyga ketyapman* – *Io vado a casa*. Va shuni esdan chiqarmaslik lozim! Italyan tili o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, gap markazida har doim *Fe'l* turadi. Mana bunday vaziyatda ehtiyotkorlik talab qilinadi: *Bu xona keng* – *Questa camera e' grande* – bu yerda *e' essere* fe'lining uchinchi shaxs birlikda tuslangan shaklidir. Ya'na bir muammo o'zbek tilida sifat so'z turkimiga kiruvchi so'zlarni otlar bilan qo'llash jarayonida yuzaga keladi. Italyan tilida sifat otdan oldin va undan keyin

kelishi ham mumkin, bu paytda faqat sifat soʻz turkimiga kirivchi soʻzning maʼnosida oʻzgarish sodir boʻlishi mumkin lekin gap strukturasi taʼsir koʻrsatmaydi: *Il vecchio amico – ancha vaqtdan beri taniydagan qadrdon doʻst, L'amico vecchio – Yoshi oʻtgan qari doʻst*. Endi oʻzbek tiliga razm solaylik, agar sifatning joyi oʻzgaradigan boʻlsa, bu ega kesimdan iborat sodda gapni vujudga kelishiga xizmat qiladi: *Chiroyli gul – soʻz birikmasi, Gul chiroyli – sodda gap*.

Xulosa.

Xalq ogʻzaki ijodida yosh avlodni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalash va tarbiya usullari, insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik tarbiyasi; doʻst birodarlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, yaxshilik va yomonlikning, yaxshi va yomon soʻzning oqibati, halollik, toʻgʻrilik, olijanoblik tarbiyasi, adolat, insof va insofsizlik, ogʻa-inichilik va qon-qardoshchilikning ahamiyati, botirlik va qoʻrqoqlik, odob-odobsizlik, mehmon va mehmondoʻstlik aqliy va jismoniy maktab ekanligi kabi qadriyatlarimizning mavjudligi salmoqli hodisadir.

Ana shunday mukammal xarakterega ega boʻlgan oʻzbek xalq ertaklarini italyan tiliga tarjima qilish jarayonida uchraydigan jamiyki muammolar, xususan, uslubiy muammolar, semantik muammolar yoki boʻlmasa, grammatik muammolarni bartaraf etish orqali milliy madaniyatni koʻklarga koʻtarmogʻimiz lozim.

Yuqorida taʼkidlab oʻtilgan qiyinchilik va muammolarni bartaraf etsak, oʻzbek xalqining milliyligi, kundalik hayoti va keng maʼnaviyatini aks ettiruvchi **“Oʻzbek xalq ertaklari”**ni dunyo tillariga tarjima qilish va bu yoʻl orqali dunyoga ibrat boʻla oladigan sharqona odob-axloqni keng ommaga taqdim etgan boʻlamiz. Oʻzbekiston Respublikasida chet tillarini oʻqitishga yuksak eʼtibor qaratilmoqda, binobarin bunday imkoniyatlar taqdim etilayotgan Mustaqil mamlakatga munosib farzand boʻlish har birimizning burchimizdir!

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alisher Navoiy «Navodiru-sh-shabob»ning 1959 yilgi nashri.
2. Hamid Olimjon, “Oygul bilan Bahtiyor” 1937.
3. Zumrad va Qimmat”O‘zbek xalq ertagi
4. Laylak bilan tulki” O‘zbek xalq ertagi.

Lug‘atlar.

1. Azizov A. A. Русско – Узбекский краткий словарь. Toshkent: O‘qituvchi. 1988.
2. Aliqulov T. Ruscha – O‘zbekcha O‘quv lug‘ati Moskva: Rus tili nashriyoti. 1982.
3. Botayev.SH., Irisqulov A. Inglizcha – O‘zbekcha O‘zbekcha – Inglizcha lug‘at. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashryoti 2009.
4. Eshonqulov J. Ruscha – O‘zbekcha lug‘at. Qarshi: Nasaf nashryoti 2005.

Internet manbaalari

www.google.ru

www.ZiyoNet.uz